

“Yangi O‘zbekiston” universiteti tomonidan ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 10-apreldagi PF–58-son farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston universitetini tashkil etish to‘g‘risida” 2021-yil 23-iyundagi PQ–5158-son, “Yangi O‘zbekiston” universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 28-apreldagi PQ–151-son qarorlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom “Yangi O‘zbekiston” universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) tomonidan ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

elektron platforma – ilmiy-tadqiqot loyihalarini topshirish, qabul qilish, ko‘rib chiqish va saralash jarayonlarini tizimlashtirish uchun ishlab chiqilgan elektron platforma;

“Yangi O‘zbekiston” universiteti Ilmiy-texnik Kengashi (keyingi o‘rinlarda – Kengash) – Universitet rektorining tegishli buyrug‘i bilan tashkil etilgan, Universitetning innovatsiya va ilmiy-tadqiqot faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kollegial organ;

ilmiy ekspertiza – ilmiy-tadqiqot loyihalari bo‘yicha asoslantirilgan qaror qabul qilish maqsadida uni o‘rganish, tahlil qilish, baholash va xulosa tayyorlashga qaratilgan faoliyat;

ekspert – ilmiy-tadqiqot loyihalarini ilmiy ekspertizadan o‘tkazish uchun Kengash qaroriga asosan shartnoma asosida jalb etiladigan mutaxassis;

Ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini rivojlantirish jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston” universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida" 2025-yil 28-apreldagi PQ-151-son qarori bilan tashkil etilgan Ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasi;

sanoat hamkori – ilmiy-tadqiqot loyihasi natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishdan manfaatdor bo'lgan sanoat yoki tarmoq korxonasi hamda vazirlik va idoralar;

vakolatli bo'linma – “Yangi O'zbekiston” universiteti Ilmiy-tadqiqotlar bo'limi;

ilmiy-tadqiqot loyihasi rahbari (keyingi o'rinlarda – Loyiha rahbari) – ilmiy-tadqiqot loyihasi belgilangan tartibda tasdiqlangan talabgor;

ilmiy-tadqiqot loyihasi ishtirokchisi (keyingi o'rinlarda – Loyiha ishtirokchisi) – ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida uni amalga oshirish uchun shartnoma asosida jalb etilgan shaxs;

bazaviy hisoblash miqdori (keyingi o'rinlarda – BHM) – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi PF-5723-son Farmoni bilan belgilangan moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning cheklangan miqdori;

ilmiy-tadqiqot loyihasi yili – 12 (o'n ikki) oyga teng bo'lgan va ilmiy-tadqiqot loyihasini moliyalashtirish boshlangan sanadan e'tiboran hisoblab chiqariladigan loyiha muddati tushuniladi.

4. Universitet tomonidan e'lon qilinadigan ilmiy-tadqiqot loyihalariga quyidagi shaxslar talabgor sifatida ishtirok etishi mumkin:

Universitet xodimi;

Universitet huzuridagi Ilg'or tadqiqotlar instituti (keyingi o'rinlarda – Institut), “Ilg'or bilim va tajribalar transferi markazi” MChJ (Keyingi o'rinlarda – Markaz) xodimi;

Universitet yoki Institut bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari hamda doktorantlari. Bunda ular:

faqat kichik ilmiy-tadqiqot loyihasiga topshirishi;

tegishli ilmiy-tadqiqot loyihasiga hamrahbar sifatida Universitet professor-o'qituvchisi yoki Institut ilmiy xodimini jalb etishi hamda mazkur shaxsning hamrahbar sifatida ishtirok etishga roziligini tasdiqlovchi xatni taqdim etishi;

18 (o'n sakkiz) yoshdan oshgan bo'lishi talab etiladi.

5. Ilmiy-tadqiqot loyihasi moliyalashtirish hajmidan kelib chiqib, quyidagi turlarda bo'lishi mumkin:

Mega ilmiy-tadqiqot loyihasi – BHMning 5 000–10 400 barobariga teng miqdorida;

Oʻrta ilmiy-tadqiqot loyihasi – BHMning 1 041–4 999 barobariga teng miqdorida;

Kichik ilmiy-tadqiqot loyihasi – BHMning 1 040 barobarigacha teng miqdorida.

6. Universitet ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvor yoʻnalishlarini hamda keyingi yilda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarining turlari, soni va moliyalashtirish hajmlarini belgilash, ilmiy-tadqiqot loyihalari tanlovini eʼlon qilish, hujjatlarni koʻrib chiqish, qabul qilish, saralash va tasdiqlash ushbu Nizomning 1-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Ilmiy-tadqiqot loyihasi Oʻzbekiston Respublikasining dolzarb muammolarini hal etishga qaratilgan boʻlishi va Universitet ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvor yoʻnalishlariga mos kelishi lozim.

Universitet ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvor yoʻnalishlari “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi maqsad va vazifalaridan, shuningdek Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi Oʻzbekiston” universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2025-yil 28-apreldagi PQ–151-son qarori talablaridan kelib chiqqan holda Kengash tomonidan har yili 1-fevralga qadar tasdiqlanadi.

8. Ilmiy-tadqiqot loyihalariga ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq minimal talablar qoʻyiladi.

9. Loyiha rahbari Universitet, Institut yoki Markaz bilan eng kamida 1 (bir) yillik mehnat shartnomasini tuzgan boʻlishi lozim, bakalavriat, magistratura talabalari va doktorantlar bundan mustasno.

Bunda:

ilmiy-tadqiqot loyihasi davomida Loyiha rahbari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi tugatilgan taqdirda, amaldagi Loyiha rahbari oʻz oʻrnida qoldirilishi yoki Kengash qaroriga asosan yangi Loyiha rahbari belgilanishi mumkin;

Loyiha rahbarini belgilash imkoni mavjud boʻlmagan taqdirda, Kengash qaroriga asosan ilmiy-tadqiqot loyihasi toʻxtatiladi.

10. Loyiha rahbari ilmiy-tadqiqot loyihasi jamoasini shakllantirishda shaxsan javobgar hisoblanadi. Bunda bir nafar shaxsning Universitet tomonidan moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarida loyiha rahbari yoki loyiha ishtirokchisi sifatida qatnashishi jami uchta ilmiy-tadqiqot loyihasidan oshmasligi lozim.

2-bob. Ilmiy-tadqiqot loyihalari tanlovini eʼlon qilish, hujjatlarni koʻrib chiqish, qabul qilish, saralash va tasdiqlash

11. Kalendar yilining iyun oyiga qadar keyingi yilda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarining turlari bo'yicha soni va moliyalashtirish hajmlari Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

12. Vakolatli bo'linma ilmiy-tadqiqot loyihalari uchun mavzular ro'yxatini shakllantirish maqsadida 1-martga qadar e'lon berish orqali o'rnatilgan tartibda talabgorlarga so'rov yuboradi.

13. Vakolatli bo'linma talabgor bilan kelishgan holda 5-martga qadar Ilmiy-tadqiqot loyihalari uchun mavzular ro'yxatini tegishli sanoat hamkoriga kelishish uchun yuboradi. Bunda taklif etilayotgan loyiha mavzusi, qoida tariqasida, tegishli (mos) sohada faoliyat olib boruvchi sanoat hamkoriga taqdim etiladi.

14. Sanoat hamkorining ushbu masala bo'yicha xulosasi 25-martga qadar taqdim etilishi lozim. Bunda belgilangan muddatda sanoat hamkorining xulosasi taqdim etilmagan taqdirda, yuborilgan mavzular tanlovga qabul qilinmaydi.

15. Vakolatli bo'linma 30-martga qadar Universitet veb-sahifasida ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish yuzasidan tanlov e'lon qiladi.

16. Tanlov e'lon qilingandan boshlab, 30 (o'ttiz) kun davomida talabgor ushbu Nizomning 4-ilovasida keltirilgan shaklda ilmiy-tadqiqot loyihasini elektron platformaga yuklashi lozim. Bunda talabgorga bir tanlovda loyiha rahbari sifatida faqat bitta ilmiy-tadqiqot loyihasini topshirishga ruxsat etiladi.

17. Ilmiy-tadqiqot loyihasini topshirish muddati tugaganidan so'ng, Vakolatli bo'linma tomonidan 10 (o'n) ish kuni ichida ilmiy-tadqiqot loyihalari texnik ekspertizadan o'tkaziladi.

18. Texnik ekspertiza doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

topshirilgan ilmiy-tadqiqot loyihasi tanlovda e'lon qilingan ilmiy-tadqiqot mavzusiga muvofiqligi aniqlanadi;

topshirilgan hujjatlarning to'liqligi, to'g'riligi va mazkur Nizom talablariga muvofiqligini tekshiriladi;

ilmiy-tadqiqot loyihasi ilgari topshirilgan ilmiy-tadqiqot loyihasiga o'xshash yoki shu mavzuda bajarilgan ilmiy-tadqiqot loyihasining mavjudligi va uning takrorlanishini (antiplagiat) aniqlanadi.

19. Topshirilgan hujjatlar Vakolatli bo'linma tomonidan texnik ekspertizadan o'tkazilgandan so'ng, talabgorga ko'rib chiqish natijalarini elektron platforma orqali yuboriladi. Mazkur xabar orqali ilmiy-tadqiqot loyihasi texnik ekspertizadan muvaffaqiyatli o'tganligi yoki kamchiliklari aniqlanganligi, yoxud rad etilganligi qayd etiladi. Bunda:

ilmiy-tadqiqot loyihasida kamchiliklar aniqlangan taqdirda – talabgor ushbu kamchiliklarni xabar yuborilgan kundan boshlab 3 (uch) ish kuni mobaynida bartaraf etilishi lozimligi;

rad etilgan taqdirda – rad etishning asoslantirilgan sabablari qayd etiladi.

20. Ilmiy-tadqiqot loyihasida aniqlangan kamchiliklar belgilangan muddatlarda talabgor tomonidan bartaraf etilmagan taqdirda loyiha hujjatlari rad etilgan hisoblanadi.

21. Texnik ekspertiza tugallanganidan soʻng, 2 (ikki) oy muddat ichida ilmiy-tadqiqot loyihasi ilmiy ekspertizadan oʻtkaziladi. Bunda, ilmiy-tadqiqot loyihasi turidan kelib chiqib, quyidagilar tomonidan ilmiy ekspertizadan oʻtkaziladi:

ilmiy-tadqiqot loyihasini bir yillik moliyalashtirish qiymati BHMning 2 500 barobarigacha boʻlgan hollarda – jalb qilingan ekspertlar;

ilmiy-tadqiqot loyihasini bir yillik moliyalashtirish qiymati BHMning 2 500 barobaridan yuqori boʻlgan hollarda – xalqaro eʼtirof etilgan tashkilotlar reytingida yuqori 30 talik roʻyxatga kirgan oliy taʼlim tashkilotidan jalb qilingan ekspertlar.

Bunda, jalb qilingan ekspertlar Scopus ilmiy bibliografik maʼlumotlar bazasi boʻyicha 1–2-kvartillarda (Q1, Q2) loyiha sohasiga mos keladigan ilmiy maqolalari chop etgan boʻlishi va Xirsh indeksi (*h*-index) 10 dan kam boʻlmasligi talab etiladi.

22. Ekspertlar nomzodlari Vakolatli boʻlinma tomonidan shakllantiriladi hamda belgilangan tartibda Kengash koʻrib chiqishi va tasdiqlashi uchun kiritiladi. Ekspertlar Kengash qarori bilan tasdiqlanadi. Ekspertlarning shaxsi, ularning tarkibi hamda ular toʻgʻrisidagi maʼlumotlar talabgorlar uchun oshkor qilinmaydi.

23. Ilmiy ekspertiza doirasida ilmiy-tadqiqot loyihasi 5-ilovadagi mezonlar boʻyicha 100 ballik shkala asosida baholanadi.

24. Agar ilmiy-tadqiqot loyihasi 60 balldan past baholansa, ilmiy ekspertizadan oʻtmagan hisoblanadi.

25. Ilmiy ekspertiza natijasi elektron platformada avtomatik tarzda shakllantiriladi.

Bunda, ilmiy-tadqiqot loyihasi ilmiy ekspertizadan oʻtganligi yoki rad etilganligi koʻrsatiladi.

26. Vakolatli boʻlinma texnik va ilmiy ekspertiza natijalarini **5-avgustga qadar** Kengashga koʻrib chiqish va tasdiqlash uchun kiritadi.

Ilmiy ekspertizadan muvaffaqiyatli oʻtgan ilmiy-tadqiqot loyihalari **15-avgustga qadar** Kengashda loyiha rahbarlari ishtirokida ochiq muhokama, yaʼni taqdimot shaklida koʻrib chiqiladi.

Bunda Kengash tomonidan ilmiy-tadqiqot loyihasining ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, amalga oshirish imkoniyati hamda ijrochi jamoaning ilmiy salohiyati baholanadi.

Xususan, loyiha davlatning dolzarbligi, tadqiqot muammosining aniq qo'yilganligi, mavjud ilmiy ishlardan farqli jihatlari, kutilayotgan ilmiy, texnologik yoki amaliy natijalari hamda ushbu natijalarning O'zbekistonning ilmiy, iqtisodiy, texnologik yoki ijtimoiy rivojlanishiga qo'shadigan hissasi inobatga olinadi.

Shuningdek, loyihani amalga oshirish imkoniyati uning metodologiyasi, ish rejasi, mavjud infratuzilma, jihozlar va resurslarning yetarliligi, ehtimoliy xavflar hamda ularni kamaytirish choralari asosida ko'rib chiqiladi. Loyiha rahbari va ijrochi jamoaning tajribasi, avvalgi ilmiy natijalari, nashrlari, vazifalar taqsimoti, shuningdek doktorantlar, xorijiy ekspertlar, sanoat hamkorlari yoki boshqa hamkor tashkilotlar ishtirokining maqsadga muvofiqligi ham baholashda inobatga olinadi.

27. Kengash ilmiy-tadqiqot loyihalarining to'g'ri va xolis baholanganligini tekshirish maqsadida qo'shimcha ekspertiza o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli.

28. Kengash ilmiy-tadqiqot loyihalari muhokamasi natijalariga ko'ra tegishli loyihalarni tasdiqlaydi.

29. Kengashning qarori Universitet rektorining buyrug'i bilan 5 (besh) ish kuni muddatda tasdiqlanadi.

30. Universitet rektorining tegishli buyrug'i asosida Vakolatli bo'linma tomonidan tasdiqlangan loyihalar elektron platformaga kiritiladi.

31. Ilmiy-tadqiqot loyihalari uchun ajratilgan mablag' doirasida Vakolatli bo'linma tomonidan mazkur nizomdagi amallar ketma-ketligiga muvofiq Universitet veb-sahifasida ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish yuzasidan yangi tanlov e'lon qilinishi mumkin.

3-bob. Moliyalashtirish tartibi

32. Universitetda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalari Jamg'arma mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

33. Jamg'arma mablag'laridan foydalanish ustidan umumiy boshqaruv va moliyaviy nazorat Universitetning moliyaviy va ma'muriy ishlar bo'yicha prorektori tomonidan amalga oshiriladi.

34. Ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish tasdiqlangan xarajatlar smetasi (kalkulyatsiyasi) hamda loyiha kalendar rejasi asosida amalga oshiriladi.

35. Ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklarni xarid qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

loyiha rahbari tomonidan xarid rejalashtirilayotgan asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklar ro'yxati, texnik tavsifi va asoslantiruvchi hujjatlar ilova qilingan talabnoma elektron tizim orqali kiritiladi;

talabnoma vakolatli bo'linmalar (Reja-moliya bo'limi, Buxgalteriya, Moddiy-texnik ta'minot xizmati) hamda innovatsiya va tadqiqot ishlari bo'yicha prorektor tomonidan 1 (bir) ish kuni mobaynida ko'rib chiqilib, kelishiladi;

moliyaviy va ma'muriy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan 3 (uch) ish kuni mobaynida tasdiqlanadi;

tasdiqlangan talabnoma asosida xaridlar amaldagi qonunchilikka muvofiq Moddiy-texnik ta'minot xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

36. Loyiha ishtirokchilari loyiha rahbarining asoslantirilgan taklifiga binoan muayyan ilmiy, tahliliy, texnik yoki tashkiliy ishlar hamda xizmatlarni bajarish uchun fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida Kadrlar, rekruting va xorijiy mutaxassislar bilan ishlash bo'limi tomonidan belgilangan tartibda jalb etiladi.

37. Loyiha rahbari hamda loyiha ishtirokchilariga fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida to'lanadigan bir oylik xizmat haqi miqdorini belgilash va uni to'lash loyiha smetasi doirasida ajratilgan mablag'lar limitidan oshmagan holda mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

38. Loyiha ishtirokchisi bilan tuzilgan fuqarolik-huquqiy shartnomaning bir oylik xizmat haqining cheklangan miqdori "Yangi O'zbekiston" universiteti rektorining 2022-yil 27-apreldagi 21-son buyrug'iga 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Yangi O'zbekiston" universiteti xodimlariga oylik ustama to'lovlarini tayinlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Maxsus komissiyasi bayoni asosida oshirilishiga yo'l qo'yiladi.

Zarur hollarda loyiha ishtirokchilariga to'lanadigan xizmat haqi miqdori loyihani amalga oshirish bosqichlari va erishilgan natijalardan kelib chiqib qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

39. Loyiha doirasida jalb etilgan chet ellik loyiha ishtirokchilariga faqat O'zbekiston Respublikasida bo'lgan davri uchun ish haqi to'lanadi.

40. Ilmiy-tadqiqot loyihasini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'larning quyidagi xarajatlarga sarflanishiga yo'l qo'yilmaydi:

bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish hamda kapital ta'mirlash;

obyektlarni qo'riqlash xizmatlari uchun to'lovlar;

transport vositalari, hashamatli mebel va aksessuarlar, uyali telefonlar xaridi, shuningdek loyiha ijrochisi bo'lmagan xodimlarning xizmat safarlari;

ish joyiga qatnash uchun yo'l haqi (jamoat, maxsus va idoraviy transport orqali);

davolanish, dam olish, ekskursiyalar, sayohatlar, sport va madaniy-ko'ngilochar tadbirlar hamda shaxsiy iste'mol xarajatlari.

Mazkur ro'yxat Kengash qarori asosida kengaytirilishi mumkin.

41. Kengash qaroriga muvofiq ilmiy-tadqiqot loyihasini bajarish muddati uzaytirilishi, shuningdek moliyalashtirish hajmiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Bunda loyiha kalendar rejasi qayta tasdiqlanadi.

42. Ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida xarid qilingan barcha asosiy vositalar Universitet balansiga qabul qilinadi va uning mulki hisoblanadi.

43. Ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida yaratilgan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar Universitetga tegishli bo'ladi.

44. Ilmiy-tadqiqot loyihasini amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'lardan maqsadli, samarali va oqilona foydalanish uchun javobgarlik loyiha rahbari zimmasiga yuklatiladi.

45. Ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida moliyaviy intizomga rioya etilishi ustidan nazorat moliyaviy va ma'muriy ishlar bo'yicha prorektor tomonidan amalga oshiriladi.

4-bob. Ilmiy natijalarni e'tirof etish va affilatsiya talablari

46. Loyiha rahbari va loyiha ishtirokchilari loyiha doirasida olingan ilmiy natijalar yuzasidan tayyorlanadigan barcha materiallarda (ilmiy maqolalar, tezislar, monografiyalar, ilmiy ishlanmalar, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadigan materiallar hamda boshqa nashrlarda) ushbu ishlar Universitet tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilganligi qayd etilishi shart.

47. Loyiha doirasida tayyorlanadigan barcha ilmiy nashrlarda Universitet xodimlari uchun muallifning asosiy ish joyi (affilatsiyasi) sifatida, boshqa loyiha ishtirokchilari uchun esa kamida ikkinchi affilatsiya sifatida "Yangi O'zbekiston" universiteti ko'rsatilishi shart.

48. Universitetning ichki hujjatlarida Universitet xodimlari uchun belgilangan yillik ilmiy nashr talabi hamda mazkur Nizom asosida moliyalashtiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalari doirasida belgilangan ilmiy nashr talablari alohida-alohida hisob yuritiladigan mustaqil talablar hisoblanadi.

49. Bitta ilmiy nashr bir vaqtning o'zida Universitet xodimining yillik ilmiy nashr talabi hamda ilmiy-tadqiqot loyihasi bo'yicha belgilangan ilmiy nashr talabi bajarilganligi sifatida ikki karra hisobga olinmaydi.

50. Ilmiy nashrning qaysi talab doirasida hisobga olinishi nashr muallifi yoki mas'ul loyiha rahbari tomonidan Universitetning tegishli elektron tizimi yoxud belgilangan shakldagi ma'lumotnoma orqali ko'rsatiladi. Bunda nashr bir marta

tanlangan hisob turi bo'yicha ro'yxatga olinadi va keyinchalik boshqa talab doirasida takroran hisobga olinmaydi.

51. Ilmiy-tadqiqot loyihasi bo'yicha nashr talabi bajarilganligini tasdiqlashda faqat loyiha rahbari tomonidan loyiha hisobotida loyiha natijasi sifatida kiritilgan hamda Kengash tomonidan qabul qilingan ilmiy nashrlar hisobga olinadi.

5-bob. Ilmiy-tadqiqot loyihasini monitoring qilish va hisobini olib borish

52. Loyiha rahbari tomonidan ilmiy-tadqiqot loyihasi bo'yicha Kengashga bir loyiha yilida ikki marta hisobot (oraliq va yakuniy) topshiriladi. Bunda, hisobotlar oralig'i kamida 6 (olti) oyni tashkil etishi kerak.

Har bir ilmiy-tadqiqot loyihasining yakuniy bosqichi loyiha ijrosining umumiy natijalari, bajarilgan ishlar, erishilgan ko'rsatkichlar va asosiy xulosalarni qamrab olgan batafsil yakuniy hisobotni Kengashga belgilangan tartibda taqdim etish bilan yakunlanadi.

53. Hisobot ilmiy-tadqiqot loyihasini uning kalendar rejasiga asosan bajarilish holati, ajratilgan moliyaviy mablag'ning maqsadli sarflanayotganligi, ilmiy-tadqiqot loyihasi natijalari bo'yicha yetakchi xorijiy jurnallarda maqolalar chop etish borasida erishilgan natijalar va ularning mavjud salohiyatga nisbatan qiyosiy tahlili bo'yicha qabul qilinadi.

Bunda, bir loyiha yilidagi yakuniy hisobot natijasiga ko'ra Kengash ilmiy-tadqiqot loyihasini moliyalashtirishni davom ettirish yoki to'xtatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

54. Sanoat hamkorlari ishtirokida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihasi bo'yicha tayyorlangan hisobotlar sanoat hamkorlari tomonidan ham tasdiqlangan bo'lishi lozim.

55. Vakolatli bo'linma ilmiy-tadqiqot loyihasining bajarilishi ustidan quyidagi shakllarda doimiy monitoringni amalga oshiradi:

taqdim etilgan yillik hisobotlarni ekspertlar tomonidan ko'rib chiqish;

Kengash yig'ilishlarida Loyiha rahbari tomonidan hisobotlarni himoya qilish;

ilmiy-tadqiqot loyihasining kalendar rejasiga asosan bajarilish holati;

ajratilgan moliyaviy mablag'ning maqsadli sarflanayotganligi;

ilmiy-tadqiqot loyihasi natijalari bo'yicha yetakchi xorijiy jurnallarda maqolalar chop etish borasida erishilgan natijalar;

har bir ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida qo'lga kiritiladigan yakuniy natijalar va ularni tijoratlashtirish imkoniyatlari.

Monitoringni amalga oshirishda zarur hollarda mustaqil ekspertlar va mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

56. Monitoring natijasiga ko'ra belgilangan ishlarni o'z muddatida bajarmaslik, shuningdek, hisobotlarni topshirish muddatlarini va moliyaviy intizomni buzish Kengash tashabbusi bilan moliyalashtirishning to'xtatilishiga asos bo'ladi.

57. Ilmiy-tadqiqot loyihasi yakunida uning natijalari hujjatlashtiriladi va Kengashga ilmiy-tadqiqot hisoboti, innovatsion ishlanma / patent shaklida taqdim etiladi.

58. Kengash tomonidan tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot loyihasi hisoboti Loyiha rahbari tomonidan referat shaklida elektron platformaga yuklanadi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

59. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

60. Ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan holatlar Kengash qarori bilan belgilanadi.

61. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Universitet rektorining tegishli buyrug'i asosida kiritiladi.

62. Mazkur Nizomda belgilangan muddatlar, shu jumladan Nizomning boshqa bandlarida boshqacha muddat nazarda tutilgan hollarda ham, zaruratga ko'ra Universitet rektorining tegishli buyrug'i asosida o'zgartirilishi, uzaytirilishi yoki qisqartirilishi mumkin. Bunda muddatlarni o'zgartirish ilmiy-tadqiqot loyihalarini tanlash, ko'rib chiqish, tasdiqlash, moliyalashtirish yoki monitoring qilish jarayonlarining uzluksizligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi.

“Yangi O‘zbekiston” universiteti tomonidan
ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga

1-ILOVA

**Ilmiy-tadqiqot loyihalarini tanlovini e‘lon qilish, hujjatlarni ko‘rib chiqish,
qabul qilish, saralash va tasdiqlash**

SXEMASI

Bosqichlar	Mas’ullar	Tadbirlar	Muddat
1-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Keyingi yilda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarining turlari bo‘yicha soni va moliyalashtirish hajmlari hamda “Yangi O‘zbekiston” universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan takliflarni tayyorlash va Universitet Ilmiy-texnik Kengashiga (keyingi o‘rinlarda – Kengash) kiritish.	may oyi davomida
2-bosqich	Kengash	Keyingi yilda amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot loyihalarining turlari bo‘yicha soni va moliyalashtirish hajmlarini, shuningdek Universitet ilmiy-tadqiqot faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini tasdiqlash.	iyun oyiga qadar
3-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Ilmiy-tadqiqot loyihalarini uchun mavzular ro‘yxatini shakllantirish.	5-martga qadar
4-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Ilmiy-tadqiqot loyihalarini uchun mavzular ro‘yxatini tegishli sanoat hamkoriga kelishish uchun yuborish va kelishish.	5-mart
5-bosqich	Vakolatli bo‘linma	Ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish yuzasidan tanlov e‘lon qilish.	30-martga qadar

Bosqichlar	Mas'ullar	Tadbirlar	Muddat
6-bosqich	Talabgor	Ilmiy-tadqiqot loyihasini elektron platformaga yuklash.	30 ish kuni davomida (1-iyunga qadar)
7-bosqich	Vakolatli bo'linma	Ilmiy-tadqiqot loyihasini texnik ekspertizadan o'tkazish va talabgorga ko'rib chiqish natijalari to'g'risida elektron pochta manziliga xabar yuborish.	10 ish kuni davomida
	Talabgor	Ilmiy-tadqiqot loyihasini topshirishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish.	3 ish kuni davomida
8-bosqich	Vakolatli bo'linma	Ilmiy-tadqiqot loyihasini ilmiy ekspertizadan o'tkazish uchun tegishliligiga ko'ra ko'rib chiqish uchun yuborish.	texnik ekspertizadan so'ng
9-bosqich	Tegishliligi bo'yicha: oliy ta'lim muassasasi / tashqi ekspert / Kengash	Ilmiy-tadqiqot loyihasini ilmiy ekspertizadan o'tkazish.	2 oy davomida
10-bosqich	Vakolatli bo'linma	Kengash yig'ilishi uchun texnik va ilmiy ekspertiza natijalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritish	5-avgustga qadar
11-bosqich	Kengash	Ilmiy-tadqiqot loyihalarini ochiq muhokama (taqdimot) shaklida ko'rib chiqish va tasdiqlash.	15-avgustga qadar
12-bosqich	Vakolatli bo'linma	Tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot loyihalari bo'yicha Universitet rektori buyrug'i imzolanishini tashkil etish.	5 ish kuni davomida

**Ilmiy-tadqiqot loyihalariga qo‘yiladigan
MINIMAL TALABLAR**

T/r	Ko‘rsatkich nomi	O‘l. bir.	Mega	O‘rta	Kichik	
I.	Muddati	yil	3	3	3	
II.	Moliyalashtirishning cheklangan hajmi (yillik)	BHM	10 400	4 999	1 040	
	shu jumladan:					
2.1.	asbob-uskunalar xaridiga yo‘naltiriladigan qismi (kamida) ¹	foiz ²	60	60	33	
III.	Ishtirokchilar soni (kamida)	nafar	10	6	1	
IV.	Loyiha rahbariga qo‘yiladigan minimal talablar					
	shu jumladan:					
4.1.	xorijiy olimni jalb etish	Soni	nafar	1	1	-
		Xirsh indeksi ³		20	5	-
4.2.	fan doktorini jalb etish	nafar	1	-	-	
4.3.	falsafa doktori jalb etish	nafar	-	1	-	
V.	Samaradorlik ko‘rsatkichlari					
	shu jumladan:					
5.1.	xorijiy va (yoki) mahalliy grant jalb qilish	foiz ²	20	-	-	
5.2.	maqolalar soni (“Q1” ³) (yillik)	dona	10	4	1	
5.3.	innovatsion ishlanma (prototip) yoki patent yaratish	dona	1	1	1	
5.4.	jalb qilinadigan doktorantlar soni ⁴	nafar	3	1	-	
5.5.	jalb qilinadigan magistratura va bakalavriat talabalari soni ⁴	nafar	10	1	-	

T/r	Ko'rsatkich nomi	O'l. bir.	Mega	O'rta	Kichik
5.6.	magistratura mutaxassisligi dasturini ishlab chiqish	dona	1	-	-
5.7.	doktorantni dissertatsiya himoyasiga olib chiqish	nafar	3	1	-
5.8.	ilmiy rahbarlik qilinadigan talabalar soni	nafar	10	3	-

Izoh.

1. Asbob-uskunalar tarkibiga laboratoriya uskunalari va unga oid materiallar, xomashyolar, dasturiy ta'minotlar hamda infratuzilmani rivojlantirish uchun xarajatlar kiradi.

2. Ilmiy-tadqiqot loyihasining moliyalashtirish hajmiga nisbatan.

3. "Scopus" yoki "Web of Science" bibliografik ma'lumotlar bazasi hisobi asosida belgilanadi.

4. "Yangi O'zbekiston" universiteti doktoranti va talabasi bo'lishi lozim.

“Yangi O‘zbekiston” universiteti tomonidan
ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga

3-ILOVA

**Loyiha rahbari va loyiha ishtirokchilariga to‘lanadigan bir oylik xizmat
haqi miqdorini hisoblashda qo‘llaniladigan**

KOEFFITSIYENTLAR

T/r	Lavozimlarning nomi	Ilmiy daraja va ilmiy unvonga oid talablar	Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga nisbatan koeffitsiyentlarda
1.	Loyiha rahbari	ilmiy darajalariga va ilmiy unvoniga ega bo‘lgan	10,00
		Ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo‘lgan	9,50
		ilmiy darajalariga va ilmiy unvoniga ega bo‘lmagan	7,00
2.	Bosh ilmiy xodim	fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga va professor ilmiy unvoniga ega bo‘lgan	9,50
		fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga va katta ilmiy xodim yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan	8,50
3.	Yetakchi ilmiy xodim	fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan	8,00
4.	Katta ilmiy xodim	fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga va ilmiy unvonga ega bo‘lgan	7,00
		fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan	6,60
5.	Kichik ilmiy xodim	ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo‘lmagan va magistr diplomiga ega bo‘lgan	6,00
6.	Yordamchi xodim	Loyiha doirasida talab etiladigan texnik yoki boshqa malakali mutaxassis	5,00

*Izoh: *Mazkur ilovada keltirilgan koeffitsiyentlar loyiha rahbari va loyiha ishtirokchilariga to‘lanadigan bir oylik xizmat haqi miqdorini hisoblashda qo‘llaniladi.*

Research Project Application - NewUU Research Project

Call Identifier	New Uzbekistan University Research Project 2026 (NewUU-RP-2026)
Project Title	
Field of study (aligned with NewUU/STC annual list):	
Project Type (Mega / Medium / Small)	
Applied grant amount	(Auto-generated from Budget)
Duration	36 months
Project Leader (Name, Degree, Position, Department):	

1. Project Summary

1.1 Abstract (max 300 words)

(Briefly describe the project essence, novelty, societal relevance to Uzbekistan, and expected outcomes.)

1.2 Plain Language Summary (max 250 words)

(Provide a plain language nontechnical description. This may be published on NewUU’s website.)

1.3 Keywords – Provide 3-7 keywords

(Example: phase-change materials; cold-chain logistics; levelized cooling cost; photovoltaic pre-cooling; vaccine transport; SME pilots.)

2. Scientific Context and Preliminary Studies

2.1 Scientific Problem (max 200 words)

(Define the specific scientific or technological problem that the project addresses. Describe the problem’s scope, underlying causes, and relevance within the broader research field. **Contextualize the problem in relation to national priorities** or societal, economic, or environmental challenges relevant to Uzbekistan.)

2.2 State of the art (max 600 words)

(Provide a structured and critical overview of the current state of knowledge and existing solutions related to the identified scientific problem. Identify the main achievements as well as the limitations, gaps, or inconsistencies in current research.)

3. Work Plan and Research Approach

3.1 Project Aims and Specific Objectives (max 500 words)

(Clearly state the overall aim of the project and break it down into specific, measurable objectives. Indicate how these objectives address the identified problem, contribute to the project's novelty, and align with the expected scientific, technological, or societal impact.)

3.2 Work Plan including Proposed Research Methods

(Present the project as a set of work packages (WPs), outlining the objectives to be addressed, the methods to be applied, the expected outputs, and the planned timeline. Indicate the interconnections between WPs and explain the specific roles of collaborating partners in achieving these goals.)

All fields are mandatory.

Field	Type
WP ID	Auto (WP1, WP2...)
Title	Text (short)
Duration	Integer (months)
Objectives	Short text box
Expected outputs	Bullet list (specific and measurable results)
Milestones	Bullet list (specific and measurable stop/go points in the project. Keep naming convention of M1, M2 etc. Give each milestone a delivery month, e.g. <i>month 12</i>)
Methods and chronological work description	
<i>Narrative text box</i>	

3.4 Data Management and Open Science (max 300 words)

(Describe how research data will be collected, stored, processed, and shared during and after the project. Explain how you will ensure data quality, security, and long-term preservation. Indicate how results and datasets will be made accessible in line with Open Science principles (e.g., open repositories, open-access publications), while respecting ethical and legal requirements.)

3.5 Risk Analysis and Mitigation

(Identify potential scientific, technical, or organizational risks that may affect the project. Assess their likelihood and impact, and describe strategies for mitigation. Where relevant, indicate contingency plans and the roles of collaborating partners in managing these risks.)

Examples:

ID	Description	Probability	Impact	Mitigation	WP
<i>R1</i>	<i>Data missing</i>	<i>High</i>	<i>High</i>	<i>Partner agreement on data access with partner X during the startup phase of the project.</i>	<i>WP1</i>
<i>R2</i>	<i>Delay in procurement</i>	<i>Medium</i>	<i>High</i>	<i>Buffer time in built in work plan. Agreement with University X to use their equipment temporarily.</i>	<i>WP2</i>

4. Expected Outputs and Impact

4.1 Scientific Results (max 500 words)

(Describe the main scientific results expected from the project. Specify the methods and measurable outputs (e.g., datasets, models, prototypes) and explain their anticipated impact. Highlight the scientific novelties of your approach and clearly state how the expected results provide advantages over existing research or technologies.)

4.2 Scientific Outputs (max 300 words)

(List the expected scientific outputs of the project, such as journal publications, patents, conference papers, datasets, software, or open repositories. Indicate the quality and level of ambition (e.g., Q1 journal articles, peer-reviewed conference proceedings, datasets with DOI) and specify how these outputs will be disseminated and made accessible to the scientific community.)

4.3 Educational Outputs (max 300 words)

(Describe how the project will contribute to education and training at different levels (undergraduate, graduate, doctoral).)

4.4 Commercialization and Application Pathway (max 400 words)

(Describe how the project's results will move beyond research into practical use. Explain the planned pathway for commercialization, technology transfer, and application of the outcomes.)

5. Research Team Potential

5.1 Team Composition

(Please list all team members (Name, Academic Title, Job Title, Workplace, Country, Role in this project. Table generated via the portal.)

5.2 Project Leader and Project Team (max 700 words)

(Describe the qualifications, experience, and leadership capacity of the Project Leader, demonstrating their ability to successfully manage and scientifically steer the project. Describe the role of the Foreign Researcher(s) and core team members, including their area of expertise and added value to the project.)

5.3 Partnerships and External Leverage (max 400 words)

(Describe the project's partnerships with external organizations such as universities, research institutes, industry partners, or public authorities. Explain the rationale for each partnership and the specific contributions expected (e.g., expertise, infrastructure, data access, pilot sites.)

6. Budget Overview

6.1 Project Implementation Costs

(Costs are calculated in the Budget Form via the portal.)

Thousand soum

No.	Type of expenses	Total Expenditure Amount	Including for Each Year :		
			Year 1	Year 2	Year 3
	Multiples of the Basic Calculation Amount	-	-	-	-
	In thousand soums	-	-	-	-
1	Salary costs	-	-	-	-
	Social tax (12%)	-	-	-	-
2	Travel expenses	-	-	-	-
3	Expenses for Purchasing Equipment, Technical Means, and Other Tangible Assets Necessary for Scientific Research (equipment installation and commissioning)	-	-	-	-
4	Expenses for purchasing materials and components for scientific research	-	-	-	-
5	Other Expenses for Project Implementation	-	-	-	-

6.2 Additional Funding Attraction (if applicable)

(This section should indicate the amount of additional financial support obtained from other sources, such as national/international grants, partner universities, development agencies, or industry collaborators.)

8. References / Cited Literature

[List all sources cited in the application using a consistent citation style (e.g., APA, IEEE). You may include up to ten of your own publications among these references.]

Example:

In-text citation	Full reference
[1]	Doe, J., & Smith, A. (2021). Phase-change composites for transport cooling. <i>Journal of Thermal Science</i> , 45(3), 210–225. https://doi.org/10.1234/jts.2021.045
[2]	Lee, K. (2022). Physics-informed estimation for thermal systems. <i>Energy Control Systems</i> , 12(1), 55–78. https://doi.org/10.5678/ecs.2022.012
[3]	World Health Organization. (2019). <i>Temperature control for vaccine logistics: Guidelines and best practices</i> . Geneva: WHO Press.

“Yangi O‘zbekiston” universiteti tomonidan
ilmiy-tadqiqot loyihalarini moliyalashtirish
tartibi to‘g‘risidagi nizomga
5-ILOVA

**New Uzbekistan University – Research Project
External Review Assessment Form**

Project Information

Project Title:	
Applicant / Project Leader:	
Reviewer Name:	

A. Overall proposal scoring guide

Recommendation Level	Description	Total proposal scoring range
Highly Recommended	Outstanding quality, highly innovative, minimal or no weaknesses	91-100
Recommended	Solid project, good quality, some weaknesses that do not compromise feasibility	81-90
Less Recommended	Several weaknesses; may limit feasibility or scientific contribution	61-80
Not Recommended	Serious weaknesses in concept, methodology, or team qualifications	0-60

Note: The scoring ranges are advisory for reviewers guidance and not binding for funding decision-making.

During scoring of each of three criteria, the reviewer is requested to describe the *strengths* and *weaknesses* in the comment box for each of the criteria. In Section D, provide a concluding explanation on your overall score.

B. Criterion-Based Evaluation (Total: 100 points)

The score assigned to each criterion should be consistent with the strengths and weaknesses described in the comments.

Comments should provide constructive feedback that can help the applicant improve the proposal.

1. Scientific Novelty and Practical Significance (Max 35 points)

Score (0–35): _____

- Is the research problem clearly defined and significant for the field?
- Does the proposal demonstrate originality and potential for scientific advancement?
- Is the state of the art adequately addressed, and is the project's contribution beyond existing work clearly justified?
- Are the expected scientific or technological outcomes meaningful and impactful?
- Does the project demonstrate potential relevance or impact for Uzbekistan's scientific, technological, economic, or societal development?

Reviewer Comments:

Strengths:

Weaknesses:

2. Feasibility of Implementation (Max 35 points)

Score (0–35): _____

- Are the research methodology and work plan appropriate and realistic for achieving the stated objectives?
- Are the available infrastructure, equipment, and resources sufficient for the project?
- Are potential risks identified and mitigation strategies described?
- If applicable, are industrial or academic collaborations well integrated and meaningful?

Reviewer Comments:

Strengths:

Weaknesses:

3. Scientific Potential and Results of the Research Team (Max 30 points)

Score (0–30): _____

- Does the project team demonstrate appropriate expertise and experience in the proposed research area?
- Do the past scientific results and publications indicate the ability to successfully implement the project?
- Is the distribution of roles and responsibilities within the team appropriate?
- If applicable, are doctoral students, foreign experts, or industry partners meaningfully involved?

Reviewer Comments:

Strengths:

Weaknesses:

C. Final Score (Sum of Sections B.1-3)

Total Score (0–100): _____

Note: Proposals scoring below 60 points are considered not to have passed the scientific expertise stage.

D. Concluding remarks

Provide an explanation on your overall evaluation of the proposal.

Reviewer Declarations:

- I confirm that I have no conflict of interest with regard to this proposal.
- I agree to treat all information in this proposal as confidential and not to share it with any third party.

Reviewer Signature: _____